

# NUTQNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Dots.A.Musayev**

## **Аннотация**

Ушбу мақолада оғзаки нутқ тизимида келтирилган хусусиятлар ва белгиларнинг ҳар қайсиси ўз ўрнига эга. Келтирилган оғзаки нутқ кўринишларининг шаклларида лингвистик омиллар ҳам, экстралингвистик омиллар ҳам муҳим ўрин тутади ва иштирок этади.

**Калит сўзлар:** Оғзаки нутқ, нутқ, нутқнинг мазмуни, нутқнинг вазифаси, нутқнинг тузилиши, расмий нутқ, норасмий нутқ, диалог, монолог, интеллектуал, эмоционаллик, акцентологик.

## **Аннотации**

Каждая из характеристик и особенностей, перечисленных в системе устной речи в этой статье, имеет свое место. И лингвистические факторы, и экстралингвистические факторы играют важную роль в цитируемых формах устной речи.

**Ключевые слова:** устная речь, речь, содержание речи, функция речи, структура речи, формальная речь, неформальная речь, диалог, монолог, интеллектуальная, эмоциональность, акцентология.

## **Annotation**

Each of the features and characteristics listed in the oral speech system in this article has its place. Both linguistic factors and extralinguistic factors play an important role in the forms of oral speech cited.

**Keywords:** Oral speech, speech, content of speech, function of speech, structure of speech, formal speech, informal speech, dialogue, monologue, intellectual, emotionality, accentology.

Har bir nutq ma'lum bir maqsad bilan soʻzlanib, oʻz gʻoyaviy yoʻnalishi va estetik ta'sir kuchiga ega boʻladi. Bu xususiyatlar nutqning tashqi xarakteriga xosdir. Ba'zan soʻzlovchining oʻziga qaratilgan, talaffuz etilmaydigan nutq ham

bo'ladi. Bunda so'zlovchi o'zi bilan o'zi gaplashadi. Bunday nutq intellektual, kinetik, bog'lanishli nutq xarakterida bo'ladi. Nutqning turli tiplari qo'llanish doirasi bilan belgilandi. Til birliklaridan qay tarzda foydalanishiga qarab nutq og'zaki yoki yozma bo'ladi.

Nutq madaniyati tushunchasi, uning yuzaga kelish davri, tadqiqot ob'ekti, uning mohiyati, ish ko'rish tarzi haqida turli-tuman fikr-mulohazalar mavjud. Shu sababli tilshunoslar ushbu tushuncha atrofida fikr yuritib nutq madaniyati, til madaniyati, nutq odobi va so'z odobi atamalarini qo'llaydilar. Hozirgi kunda nutq madaniyati atamasi shu tushunchani ifodalovchi birlik sifatida ko'pchilik tomonidan tan olindi, ilmiy muammo sifatida uni tadqiq qilish lozimligi ko'pchilik tomonidan ma'qullandi.

Til bilan nutqni bir-biridan farqlash masalasi o'tgan asrdayoq o'rtaga tashlangan edi. V.Gulboldt til va nutqni farqlab, tilni "so'zlarga va qoidalarga bo'lib yuborish tilning tabiiy holati bo'lmay, ilmiy tahlilning mexanistik ishidir"/1:-141/, desa-da, o'rni kelganda "til gap va nutq uchun faqat tartibga solib turuvchi sxemalarnigina belgilaydi"/2:-50/, deydi. Nutq jarayonida til birliklari (lug'at tarkibi, grammatik qoidalar, fonetik imkoniyatlar)ning ma'lum qismidan fikr ifodalash maqsadida foydalaniladi. Demak, kishilarning gaplashishi til birliklaridan ma'lum qismining reallashishidan iboratdir. Tilning jamiyat taraqqiyoti oldidagi ahamiyati nutq jarayonida namoyon bo'ladi. G.Shteyntalning fikricha, nutq (gapirish) tilning hozirgi paytda yuz berayotibdi, deb fikr qilinayotgan ko'rinishidir"/3:-106/.

Keyingi davrlarda nutq gapirish jarayoni hisoblanib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tildan farqlangan holda, nutqni bir so'z yordamida aloqa qilish jarayonining o'zginasidir, deb ataymiz"/4. Demak, nutq shaxsdagi ruhiy va fizologik jarayon bo'lishi bilan birga, til materiallarining amalda namoyon bo'lishidir. Nutq yakka shaxsga tegishli bo'lib, unda so'zlovchiga xos xususiyat o'z aksini topadi. Shuning uchun ham nutqdagi yakka shaxsga xoslik umumtil tizimi qonuniyatlaridan chetga chiqmaydi.

Shunday qilib, til va nutq o'zaro bog'langan, biri ikkinchisiz mavjud

bo'lmaydi, lekin ular bir-biridan farq qiladigan ijtimoiy hodisalardir. Til va nutq aloqa jarayonining "Faqat ikki aspekti, xolos"/5:-18/. Til aloqa qilish jarayoni uchun material bersa, nutq esa shu materialdan fikr shakllantirishdir.

Til birliklari nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan, u adabiy tilda so'zlashuvchilar tomonidan kundalik hayotda, mehnat jarayonida, oilaviy turmushda, tantanavor muhitda ham qo'llaniladi.

"Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan "til-til qobiliyati - nutq" zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) shaklda (og'zaki, yozma, turli shartli belgilar vositasida) namoyon bo'ladi va bizning sezgi a'zolarimiz tomonidan qayd etiladi (eshitiladi, yoziladi, ko'riladi, o'lchanadi). Til esa yashirin ichki hamda ideal hodisa sifatida anglatadi, tasavvur etiladi" /6:-9/

Til vositasi bilan belgili sharoitda aloqa qilish mumkin. Shunga ko'ra, nutq bir necha xil bo'ladi: kundalik nutq, ishchan nutq, tantanavor nutq, ommaviy nutq, so'zlashuv nutqi, dialektal nutq, sahna nutqi, personaj nutqi, badiiy nutq, folklor nutqi, obraz nutqi, notiq nutqi, poetik nutqi kabilar.

Nutq ko'rinishining shakllarida lingvistik omillar ham, ekstralingvistik omillar ham muhim rol o'ynaydi va ishtirok etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Nutqni idrok qilish va shakllantirish sharoiti.
2. Nutqning mazmuni.
3. Nutqning vazifasi - harakat shakli.
4. Nutqning tuzilishi - tarkibiy qurilishi.

### **1. Nutqning idrok qilish va shakllantirish sharoiti.**

Suhbatdoshlar va nutq so'zlovchilar turli xil nutqiy sharoit, vaziyatda til birliklaridan har xil foydalanadilar. Natijada o'z nutqini shakllantiradi.

Nutqni idrok qilish va shakllantirish sharoiti bilan bog'liq omillar esa quyidagilardan iborat:

1. Munosabat sharoitining rasmiylik va norasmiylik darajasi. Ma'lumki, rasmiylik kishiga majburiyat yuklaydi, natijada u har bir aytadigan fikrini o'ylab, mantiqiy izchillik bilan fikr yuritadi. Bunda har doim kitobiy nutq shakllariga murojaat qilinadi.

Narosmiy sharoitda suhbatdoshlar, nutq soʻzlovchilar oʻzlarini erkin tutadilar, erkin fikrlaydilar va bunda soʻzlashuv nutqi shakllariga murojaat qiladilar.

2. Nutqning shakllanishi va yashash shakli. Nutq bir-biri bilan doimo bogʻliq boʻlgan yozma va ogʻzaki shaklda namoyon boʻladi. Tarixan ogʻzaki shakli birlamchi, yozma shakl ikkilamchidir.

Ogʻzaki nutq oʻzaro bevosita aloqa jarayonida hukmron shakl sanaladi. Ogʻzaki nutq nutqiy ifodalilikka boy boʻlib, u yozma nutqda har doim oʻz ifodasini topavermaydi. Yozma nutq mantiqiy nutq boʻlib, uning shakllanishi sekin kechadi va oldindan durustroq oʻylashni talab qiladi.

3. Suhbatdoshlarning munosabat darajasi. Suhbatdoshlarning oʻzaro aloqasi rasmiy va norasmiy holatda kechadi. Ana shu aloqa bevosita va bilvosita tarzda yuz beradi.

Bevosita nutqiy aloqa jarayoni toʻliq va ikki tomonlama munosabat asosida yuz beradi. Bevosita aloqa jarayonida ogʻzaki nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati ustun darajadadir.

Bilvosita aloqa esa majlisda soʻzlash, radio va televideniye orqali gapirish, plastinka va magnit tasma-siga yozilgan soʻzni eshitish orqali zohir boʻladi. Bilvosita aloqa jarayonida yozma nutq shakllaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

4. Nutq ob'ekti xarakteri. Nutq jarayonida nutq sub'ekti yakka, koʻplik va abstrakt xarakterda boʻladi.

Nutq sub'ekti yakka shaxs sifatida suhbatdoshlar bilan bevosita muloqotda boʻlganda ogʻzaki nutq birliklaridan koʻproq foydalaniladi.

Nutq sub'ekti jamlikni ifodalaganda publitsistika uslubi nutqiy shakllaridan foydalaniladi.

Ilmiy nutqda abstrakt xarakterdagi fikrlar bayon etiladi.

5. Nutq adresatining xarakteri. Nutqni shakllantirishda ishtirok etuvchi adresat ham yakka, jamlik va abstrakt xarakterda boʻladi.

Yakka adresat soʻzlashuv nutqi uchun, jamlik publitsistik nutq uchun, abstrakt adresat ilmiy va rasmiy nutq uchun xarakteridir.

6. nutq ko‘rinishi. O‘zaro nutqiy aloqada nutqning ikki ko‘rinishi: dialog va monolog mavjud.

Dialog suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqidir.

Monolog so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglashi va javob berishi nazarda tutilmaydigan nutqdir.

Dialog so‘zlashuv nutqini, monolog kitobiy nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

7. nutqqa maxsus tayyorgarlik ko‘rilganligi darajasi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rilmay so‘zlangan nutq so‘zlashuv nutqini, maxsus tayyorgarlik ko‘rib fikrni ifodalash kitobiy nutqni shakllantiradi.

8. nutqiy aloqada ekstralingvistik birliklarning faolligi darajasi. Nutqni tushunish va shakllantirishda ekstralingvistik omillar muhim rol o‘ynaydi. Bu narsa yozma nutqqa nisbatan og‘zaki nutqda ustun darajada namoyon bo‘ladi.

## **2.Nutqning mazmuni.**

Kishi ob‘yektiv borliqni ko‘radi, eshitadi, o‘lchaydi, sezadi, yozadi va o‘z tafakkurini boyitadi. Ob‘yektiv borliqdagi turli voqea-hodisalar, narsa-predmetlarning kishi ongida aks etish darajasi turlicha bo‘ladi. Natijada kishining nutq mazmuni ham har xil bo‘ladi.

Borliq haqidagi bizning tafakkurimiz ikki xil bo‘ladi: predmetli aniq tafakkur, nazariy abstrakt tafakkur.

Predmetli aniq tafakkur, o‘z navbatida, oddiy predmetlik va predmet obrazi tafakkurga bo‘linadi.

Predmetli aniq tafakkur jarayonida nutqni shakllantirishning quyidagi ko‘rinishlari vujudga keladi: a) oddiy predmetli tafakkur shakllanadi va og‘zaki nutqda qo‘l keladi; b) umumlashtiruvchi tafakkur shakllanadi va u publitsistik nutqda ishlatiladi; v) predmet obrazi tafakkuri shakllanadi va u badiiy nutqda qo‘llaniladi.

Nazariy abstrakt tafakkur jarayonida fikmi shakllantirishning ilmiy nutqqa xos shakllari vujudga keladi.

## **3.Nutqning vazifasi - harakat shakli.**

O‘zaro aloqa jarayonida nutqni shakllantiruvchi turli xil omillar mavjud bo‘lib, ulardan biri nutqning vazifasidir. Nutqning vazifasi uning doimiyligi, ob'ektivligi, qonuniyligi va tizimliliği bilan xarakterlanadi.

Nutqlar ma'lum bir vazifasiga ko‘ra bir-biriga o‘xshasa ham u boshqa xususiyatlari bilan farqli tomonlariga egadir. Vazifalarning bir- biri bilan qorishishi natijasida yangi nutqiy shakllar vujudga keladi.

Har bir nutq vazifasida quyidagi xususiyatlar o‘z ifodasini topishi mumkin:

1. ob'ektivlik va sub'ektivlikni ifodalash vazifasi. Kishi borliq haqida o‘zining ob'ektiv va sub'ektiv xulosasini bildiradi. Har doim nutqda ob'ektiv borliqni ifodalash vazifasi ustun turadi: Chekish – nafas olish organlarining faolivatiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu misolda ilmiy uslubning xususiyatlarini aks ettirgan ob'ektiv nutq na'munasidir.

Bu yerda nafas olish mumkin emas gapida sub'ektiv fikr bayon etilgan.

Nutqning obyektivlik va subyektivlik vazifasi birgalikda kelishi ham mumkin.

2. konkretlik, abstraktlik va umumlashtirishni ifodalash vazifasi. Masalan, Talaba o‘z do‘stiga qarab: Biz o‘qituvchi bilan bahslashdik, deydi. Bunda har qanday o‘qituvchi va talaba haqida emas, balki aniq kishilar to‘g‘risida fikr bildirilgan. Chunki misolda biz - talabalar so‘zi ham, o‘qituvchi, bahslashdik so‘zlari ham aniqlikni aks ettirgan. Fikrni bunday ifodalash so‘zlashuv nutqiga xosdir.

Badiiy obraz orqali mualliflarning tasvirlangan narsaga munosabati ifodalanadi. Bunda badiiy obraz, muallif, tasvirlangan narsa, munosabat kabi so‘zlar abstrakt tushunchani ifodalamoqda. Fikrni bu tarzda ifodalash vazifasi ilmiy nutq uchun xarakteridir.

Talabalar universitet shuhratini saqlashdi gapida fikr umumlashma xarakterga egadir. Gapdagi universitet shuhrati birikmasida universitet so‘zi jamoa ma'nosida va uning shuhratini butun jamoa saqlashi haqida fikr yuritilgan. Bunday umumlashma fikrni ifodalash vazifasi publitsistik nutqqa xosdir.

3. intellektuallik va emotsionallikni ifodalash vazifasi. Haqiqat kashf

etildimi, uni nutq vositasida boshqalarga yetkaziladi. Shu jarayonda intellektual xabarni ifodalovchi nutq shakllanadi va u ilmiy nutqni vujudga keltiradi.

Soʻzlovchi borliqni aks ettirar ekan, unda oʻzining his tuygʻularini ham ifodalaydi. Natijada turli emotsional xabarni ifodalovchi nutq shakllanadi va u soʻzlashuv, publitsistik, badiiy nutqni vujudga keltirishda ishtirok etadi.

4. ochiq (eksplitsit) va yopiq (implitsit) mazmuni ifodalash vazifasi. Ochiq mazmuni ifodalash vazifasi ilmiy nutq qonuniyati sanalsa, yopiq mazmuni ifodalash vazifasi soʻzlashuv publitsistik, badiiy nutq uchun xos qonuniyatdir. Ana shu qonuniyatlar asosida nutqning tuzilish asosi belgilanadi.

#### **4.Nutqning tuzilishi - tarkibiy qurilishi**

Maʼlumki, nutq tuzilish tilning yashash shaklidir. Nutqni tarkibiy qurilishi jihatdan uyushtirishning umumiy qonun-qoidalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1) uslubiy beligisi aniq koʻringan birliklarning salmogʻi va xarakteri, Masalan, soʻzlashuv nutqi uchun xarakterli boʻlgan birliklarning tarkibiy qurilishi publitsistik, badiiy nutqda oʻz oʻrni bilan ishlatilishi.

2) nutq qurilishida analitizm va sintezizm nisbati. Masalan, badiiy nutqda analitizm nisbati kuchli boʻlib, kitobxon oʻqish va oʻylash jarayonida muallif fikrini sintezlaydi.

3) Oʻta muhim maʼnolarni ifodalash darajasiga koʻra har bir narsani oʻz mohiyatiga mos keluvchi shakl bilan atash ilmiy nutqqa, muhim maʼnolarni ifodalovchi shakllarni tanlash soʻzlashuv nutqiga, ekspressiv maʼnolarni ifodalovchi shakllarni tanlash publitsistik nutqqa, barcha uslublarga xos shakllardan foydalanish badiiy nutqqa xos belgidir.

4) nutq tuzilishining toʻliq shakllanganlik darajasi. Fikrni toʻliq bayon etish natijasida nutqni toʻliq shakllantirishga intiladilar. Bu holat yozma nutqda oʻz aksini topgan. Sharoit, kontekst va ekstralingvistik omillar taʼsirida nutq toʻliq shakllanmagan boʻladi. Bu narsa toʻliq kuzatiladi.

5) metaforalardan foydalanish xarakteri. Nutqda metafora ikki maʼnoni ifodalashga xizmat qiladi: a) til yoki kontekstdan tashqari maʼno; b) nutqiy yoki

kontestual ma'no. Ana shu ikki ma'noning o'zaro munosabati natijasida qo'shimcha sekmantik ottenkalar, ba'zan tushunib bo'lmaydigan sub'ektiv ma'nolar ifodalanadi.

So'zlashuv nutqida nutqiy metaforalardan foydalanadilar.

Kitobiy nutqda ekspressiv, ochiq va yopiq metaforalardan foydalanishga intiladilar.

6) o'zlashgan qatlamning salmog'i va xarakteri. Yozma nutqda o'zlashgan so'zlar salmog'i ko'pchilikni tashqil qiladi.

So'zlashuv nutqida o'zlashgan qatlamning salmog'i ozchilikni tashqil qiladi. O'zlashgan qatlam shakllari o'zlashganlik darajasi unutilganda, kesatq, piching ma'nolarini ifodalaganda so'zlashuv nutqida ko'proq ishlatiladi.

7) Til turli birliklarning o'zaro bog'liqlik darajasi. Ilmiy, publitsistik, rasmiy nutqda til birliklarining o'zaro aloqadorligi juda kam darajada, chunki ularda intellektual neytral shakllar ko'proq ishlatiladi.

Til turli birliklarining o'zaro aloqadorligi so'zlashuv nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki so'zlashuv nutqida har bir til birligi o'zining gapda joylashish o'rniga, intonatsiyasiga va urg'uning ta'siriga ko'ra turlicha vazifani bajaradi.

Nutqni shakllantirish omillari ta'sirida har bir nutqning asosiy xususiyatlari shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat: nutqning to'g'riligi, tozaligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ta'sirchanligi, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqliigi.

Nutqning to'g'riligi. Bu uning bosh aloqa belgisi hisoblanadi. Nutqning to'g'riligi - so'zlovchi va tinglovchining bir-birini oson va tez tushunishlarini ta'minlovchi omil. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq maqsadga muvofiq va mantiqiy ham bo'lmaydi.

Nutq to'g'riligini ta'minlovchi bir necha omillar mavjud. Nutqning to'g'riligi, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelishidir.

Bunda ikki xil me'yorga (amalga) qattiq rioya qilinishi lozim. Bular aktsentologik (so'z va formalarda qonunning to'g'riligi) va grammatik me'yorlardir.

Aktsentologik me'yorlarga binoan ulardagi ayrim bo'g'inlarning



zarb bilan aytilishi, talaffuz qilinishi. Ma'lumki, o'zbek tilida so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u keyingi bo'g'inga ko'chiriladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ba'zan so'z ma'nosi ham o'zgaradi. Masalan: atlas-atlas, olma-olma, hozir-hozir, yangi-yangi, qatlama-qatlama kabi.

Urg'uni qayerga qo'yishni farqlamaslik so'z ma'nolarining buzilishiga sababchi bo'ladi.

O'zbek nutqida ikki xil urg'u, ya'ni leksik urg'u va mantiqiy urg'u mavjud. Leksik urg'u, birinchidan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish me'yorlarini belgilashga yordam beradi, ikkinchidan, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi (atlas - mato, atlas - jug'rofiy atlas), uchinchidan, so'z shakllarini farqlashda ishlatiladi (qushcha - kichkina qushday, qushcha - qushday).

Nutqda mantiqiy urg'u ham mavjud. Bunda so'zlovchi gap bo'laklaridan birortasini kuchliroq talaffuz qiladi va tinglovchining e'tiborini shu bo'lak orqali ifoda etilgan ma'noga tortadi. Masalan: Besh bolali xotin avtobusga chiqdi. Bunda mantiqiy urg'u besh so'ziga, bolali so'zi va xotin so'ziga tushganda gapning ma'nosida o'zgarish yuz beradi. So'zlarga qay yo'sinda urg'u berilishiga qarab ma'no o'ttenkalari o'zgaradi. Shu o'rinda Bernard Shouning qo'yidagi so'zlarini eslash o'rinli: «Ha so'zini aytish va talaffuz qilishning ellik xil usuli mavjud, lekin uning bir xil yozilish usuli bordir»<sup>9</sup> /7:-172/. Haqiqatan ham so'zlashuv nutqida ha goh mustaqil gap sifatida tasdiq, javob, rozilik, biror fikrga qo'shilganlik va darak, so'roq, buyruq, his - hayajon ifodalashi, juda ko'p sintaktik konstruktsiyalar bilan yonma-yon yoki ularning vazifaviy sinonimi sifatida qo'llana olishi mavjud.

Grammatik me'yorlarga rioya qilish deganda gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'lanishning tabiiyligi, ega va kesim mosligi kabi xususiyatlarni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Lekin tilimiz va mustaqilligimizda morfologik, sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Bular kelishik qo'shimchalarini farqlamasdan ishlatishda (ularni(ng), uch o'g'li bor, sizni(ng) o'zingizga munosib, pichoqni(ng) sopi, odamlar seni(ng) oldingga(da) nima qiladi), fe'lning tuslovchi shakllarini qo'llashda shevalarga xos belgilarni ishlatishda (bordik - borduz, borduvuza; keldingiz - keldiz, keldiyla; borayotgan -

borvotkon, boryatirgan; borsak - borsov, borsovza).

Nutqda ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish nutq to'g'riligini ta'minlashda kerakli omildir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gumboldt V.O razlichin organizmov chilovekogo yazo'ka. SPB, 1985, s.141.
2. Shteyntal G. Grammatika, logika I psixologiya arang. Zvegintsev V. A.Xrastomatiya po istorii yazo'ka znanie. XIX-XX vekov. Z.I.M.: 1956. S. 106.
3. Psixologiya. M. 1984. S.262.
4. Axmanova O.S. jcherki po obhey I russkoy leksikologii. M.: 1957. S.18.
5. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 9б.
6. Проммы современной филология. М.: Наука. 1965. С. 172.